



**IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNESNING AHAMIYATI VA
ZARURATINING NAZARIY ASOSLARI**

J. J. Ergashev

Namangan muhandislik-texnologiya instituti PhD.

Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, magist

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotni rivojlanishida kichik biznesning ahamiyati va zaruratining nazariy asoslari, bugungi kundagi kichik biznes faoliyatini o'zgarish jarayonlari xamda mamlakatimiz kichik biznes faoliyatini rivojlantirish samaradorligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xarajat, biznes, tadbirkorlik, investision, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investisiya, investision tizim.

Аннотация: В статье теоретические основы значимости и необходимости малого бизнеса в развитии экономики, процессы изменения деятельности малого предпринимательства сегодня, эффективность развития малого бизнеса в нашей стране.

Ключевые слова: малый бизнес, стоимость, бизнес, предпринимательство, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

Abstract: The article provides the theoretical foundations of the importance and necessity of small business in economic development, the processes of change in the activities of small business today, the effectiveness of small business development in our country.

Key words: small business, cost, business, entrepreneurship, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.


Mamlakatimiz mustaqillika erishgan so'ng barcha sohalarning rivojlantirish bilan birgalikda iqtisodiyotimizni yuksaltirib borish hamda rivojlangan davlatlar bilan xamkorlik qilish bosh maqsad qilib qo'yilgandir. Shu bois yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash yuzasidan moliyaviy va boshqa sohalarda tegishli imtiyozlar yaratish yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakkantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish", asosiy maqsadlar sifatida belgilangan[2]. Bu borada kichik biznes sub'yektlari ishlab chiqarish xarajatlarini minimal-lashtirish va mahsulot xajmini oshirishning optimal darajalarini baholash, eksport xajmini oshirish imkoniyatlarini asoslash, prognoz ko'rsatkichlarining aniqlik darajasini oshirish kabi yo'nalishidagi tadqiqtolar ko'lagini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Shuning uchun mazkur sohaning barqaror rivojlanishi tadbirkorlik sohasida ro'y berayotgan har qanday o'zgarishlarga kuchli ta'sirchan hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, aholi turmush



darajasining doimiy ravishda yuqori bo'lishiga eng avvalo, kichik biznesni jadal rivojlantirish orqali erishilib kelingan. Shundan kelib chiqqan holda kichik biznesni rivojlantirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan birga kichik biznes korxonalarini faoliyatini raqamlashtirish O'zbekiston aholisi uchun ham g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bizga ma'lumki kichik biznesga kirish qismidagi faoliyatga xos bo'lgan xarakterli belgilarga ega bo'lgan, firma ichki munosabatlariiga asoslangan, hamda tashqi muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan korxonalarini hisoblanadi[4]. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida, Yaponiyada, "kichik va o'rta biznes" tushunchalari esa Hindistonda va Osiyo mamlakatlarida "kichik ishlab chiqarish" nomlari bilan qo'llaniladi. Shuningdek, "Biznes" so'zi halqaro miqyosda keng qo'llanuvchi tushuncha hisoblanadi va uning qamrov darajasi iqtisodiyotdagi har qanday o'zgarishlar ta'sirida o'zgarib turadi. Bundan tashqari biznes foyda keltiradigan iqtisodiy faoliyat, foyda olish yoki shaxsiy manfaatni nazarda tutuvchi daromad olishga qaratilgan har qanday faoliyatdir (1-rasm).




1-rasm. Kichik biznesni o'ziga xos xususiyatlari

Albatta, kichik biznes, o'rta va yirik biznes korxonalarini bilan mustahkam o'zaro bog'liqlikda va aloqadorlikda faoliyat olib boradi:

- birinchidan, kichik biznes mintaqaviy iqtisodiyotning eng muhim qismidir;
- ikkinchidan, kichik biznes yirik biznesning ko'rinas qismidir, bozor iqtisodiyotidagi ko'plab muamolarni tez bartaraf etishda foydalanish mumkin;
- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish uchun mintaqalarni majmuali o'rganiladi va sohani rivojlanishi bo'yicha strategiyalar ishlab chiqiladi, milliy loyihibar qabul qilinadi;
- to'rtinchidan, hududlarda kichik biznesni rivojlanishi ta'sirida o'rta va yirik biznes rivojlanishi uchun mustahkam platforma vazifasini bajaradi;
- beshinchidan, sohani rivojlanishi aholi o'zini-o'zi bandligi ta'minlash muhim omil hisoblanadi, bir qator ijtimoiy muammolar hal etiladi, ishsizlik darajasini pasayishiga ta'sir ko'rsatadi, yangi ish o'rinalarini ochilishiga olib keladi (2-rasm).

Ma'lumki, kichik biznes bozor iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga tez moslashadi, bozor talablarini asosida tez ixtisoslashadi, iqtisodiyotdagi yangi innovatsiyalarni tez o'zlashtiradi. 1990 yillardan boshlab, zamonaviy innovation tizimlar shakllana boshladgi, bu tizimlarga texnoparklarni, biznes inkubatorlarni, injinering markazlarni, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini, nanotexnologik markazlarni kiritish mumkin. Kichik biznes korxonalarini bozor iqtisodiyoti talablariga mos rivojlanishi uchun sohaga ko'proq innovatsiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.



2-rasm. Kichik biznes aloqalari.

Ma'lumki, kichik biznes bozor iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga tez moslashadi, bozor talablarasi asosida tez ixtisoslashadi, iqtisodiyotdagi yangi innovatsiyalarni tez o'zlashtiradi. 1990 yillardan boshlab, zamona viy innovasion tizimlar shakllana boshladi, bu tizimlarga texnoparklarni, biznes inkubatorlarni, injinering markazlarni, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini, nanotexnologik markazlarni kiritish mumkin. Kichik biznes korxonalarini bozor iqtisodiyoti talablariga mos rivojlanishi uchun sohaga ko'proq innovatsiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir[5].

Shu bois barcha sohalar kabi kichik biznes sohasiga "Industriya 4.0" tamoyillarini keng qo'llash orqali to'rtinchi sanoat inqilobi yutuqlarini amaliyatga joriy etish ishlarini jadallashtirish lozim. Barcha iqtisodiyot sohalaridagi an'anaviy ishlab chiqarishdan innovatsiyalarga asoslangan raqamli iqtisodiyot mos keluvchi yangi innovasion kichik biznes tizimini rivojlantirish zarur.

Bundan tashqari yangi texnologik inqiloblar inson mehnat va yashash sharoitlarini o'zgartirib, yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Bunday o'zgarishlar zaminida yangi biznes-modellar, g'oyalar shakllanishiga olib keladi va an'anaviy holatda faoliyat yurituvchi kompaniyalarda jiddiy tarkibiy va innovasion o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yangi minglik boshlanishida raqamli texnologiyalarni ko'payishi, mobil internet faollashuvi, kichik hajmli ishlab chiqarish uskunalarini ishlab chiqarishni kuchayishi, sun'iy ongni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga jadal kirib kelishi fonida yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimlari rivojlandi[3].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki iqtisodiyotdagi kichik biznes yirik biznes rivojlanishi uchun mustahkam platforma vazifasini bajaradi. Birining faoliyatini ikkinchisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sohani rivojlantirish uchun raqamli platformlarni tashkil etib, amaliyatga joriy etish uchun yo'l ochish zarur va innovasion yangiliklarni amaliyatga tadbiq etish rivojlantirish zarur. Iqtisodiyotda nanotexnologik markazlarni, kichik ilmiy-ishlab chiqarish majmularini tashkil etish mavjud muammolarni bartaraf etishni jadallashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi PF-5718-soni "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan



takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 2019 y. 20-may. 20-son.369 modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘njallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni(<https://lex.uz/docs/5841063>).

3. Aripov O.A.. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Dis... iqt. fan. d-ri. – T., 2020.

4. Краснов И. Роль малых и средних предприятий и мировой экономике.- Международный журнал «Проблемы теории и практики управления», Официальное из давние Международного научно-исследовальского института проблемы управления, 1/2013, www.uptp.ru, 38 с.

5. Заверза Е.В.Формирование региональной инфраструктуры развития малого инновационного бизнеса. автореферат диссер.на соис.ученый.степен.ккандидата экон.наук.Краснодар. Россия, 2019, 8-с.

6. [www.smednc.am,http://www.smednc.am/files/pdfs/attachments/original/6e1doa414.pdf](http://www.smednc.am/files/pdfs/attachments/original/6e1doa414.pdf)

7. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to‘plam. Toshkent, 2020 y.190b.